
MAHALLA “BESHЛИGІ”NING TIG’IZ ISH KUNLARI

“Dasht Pandigon” mahallasi tuman markazidan 15 kilometr uzoqlikda joylashgan. Mahallada 542 ta xonadon bo’lib, ularda 2963 nafar aholi istiqomat qiladi. Hududda 1 ta umumta’lim maktabi, sport maydonchasi, choyxona, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat ko’rsatish shoxobchalari aholi xizmatida. Mahallada o’nlab tadbirkorlar ham borki, ular yangi ish o’rinlari yaratish barobarida aholi, shu jumladan, yoshlarning ishbilarmonlik ko’nikmalari shakllanishiga ham ko’maklashib kelmoqda. Bugungi kunda mazkur mahallada faoliyat yuritayotgan “beshlik” – MFY raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektori hamjihatlikda, bamaslahat ish olib bormoqda.

RAISLIK KATTA MASULIYAT

“Dasht Pandigon” mahalla fuqarolar yig’ini binosiga kirib borganimizda mazkur mahallada faoliyat yuritayotgan “beshlik” bizni samimiyat bilan kutib oldi.- Mahalla raisi bo’lish bu - juda katta mas’uliyat, - dedi MFY raisi A.Husanov. - Islohotlarni har bir xonadonga kirib borishida hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektori bilan bir qator qator men ham javobgarman. Ana shularni o’ylagan holda ushbu “beshlik” bir yoqadan bosh chiqarib ishlab kelyapmiz. Bizga yaratib berilayotgan sharoitlardan unumli foydalanishimiz lozim. MFY raisining tashabbusi bilan mahalla fuqarolar yig’ini xodimlari joylashgan bino to’liq ta’mirdan chiqarildi. MFY raisining har bir kuni tig’iz desak mubolag’a bo’lmaydi.

TINIB-TINCHIMAS “YORDAMCHI”

Tuman hokimining mahallalardagi yordamchilari bugungi kunda aholining chinakam ko’makchisiga aylanib bormoqda. Xususan, 3-sektorga qarashli “Dasht Pandigon” MFY hokim yordamchisi Jo’rabek Hamraliev faoliyatidan mahalla ahli mamnun. Uni mahallada tinib-tinchimas “yordamchi” deb atashadi. Jo’rabek shu kunga qadar ushbu mahalladagi 230 nafar fuqaroni ish bilan ta’minladi. Jumladan, Nigoraxon Umarovaga tikuvchilik sexi ochishi uchun 28 million so’m imtiyozli kredit ajratib berilishida hokim yordamchisining hissasi katta bo’ldi. Natijada mahalladagi yangi chevarxonada 6 ta yangi ish o’rinlari yaratildi. Bundan tashqari, hokim yordamchisining tashabbusi bilan Niëzbek Kamoldinov kulolchilik sexi ochdi va 4 nafar qishloq ëshlarini doimiy ish bilan ta’minladi. - Ayni paytda mahallamiz ahli va ishsiz yoshlarga Yurtboshimiz tomonidan ko’rsatilayotgan g’amxo’rlikdan xursandman, - dedi Nazokatxon Egamova. - Yaratib berilayotgan shunday sharoit va imkoniyatlarga javoban astoydil ishlab, el-yurtga foydam tegishini xohlayman.

YOSHLARNING BOSHINI QOVUSHTIRIB

O’zbekiston - yoshlar mamlakati. Shu bois, yurtimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasi va kamolotiga alohida e’tibor qaratiladi. Zero, har bir mamlakatning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqining munosib turmush sharoitida yashashi va xalqaro maydondagi mavqeining mustahkamlanishi yoshlar ta’lim-tarbiyasi hamda kelajagiga qaratilayotgani bilan bevosita chambarchas bog’liq. Shu bois mamlakatimiz rahbarining tashabbusi bilan har bir mahallada yoshlar yetakchisi faoliyat yuritib kelmoqda. Mahalla vatan ichra kichik vatan hisoblanadi. Demak, mahalladagi yoshlarni rozi qilish, ularga munosib turmush sharoitini yaratishga barcha birdek mas’ul. Zotan, yoshlar yetakchisi mahalladagi yoshlarning eng yaqin suyanchig’i, ishonchli hamkori, samimiy maslahatgo’yi, chin do’stiga aylanmog’i kerak. Aynan shu aqidaga amal qilib faoliyatini boshlagan “Dasht Pandigon” MFY yoshlar yetakchisi Bahromjon Tojiboev bugungi kunda yoshlarning suyanchig’iga aylangan. Ma’lum bo’lishicha, ushbu mahallada 14-30 yosh toifadagi 630 nafar yoshlar mavjud bo’lib, xatlov natijalariga ko’ra 36 nafar ishsiz yoshlar “Yoshlar daftari”ga kiritildi. Ushbu kitobga kiritilib, imtiyozdan foydalanib, daromad manbaiga ega bo’lgan yoshlardan biri Navro’zbek Abduraimovdir. Navro’zbek avvallari Rossiya federatsiyasiga ishlash uchun borar edi. Endi unga subsidiya asosida payvandlash apparati berildi. Hozirgi kunda u doimiy daromadga ega bo’ldi. “Yoshlar daftari”ga kiritilgan Kamronbek Muqimovning o’qish uchun esa to’lov shartnomasining 50 foizi to’lab berildi. Bir so’z bilan aytganda, mahalladagi yoshlar yetakchisi ismi-jismiga mos ravishda faoliyat olib bormoqda.

AYOLLAR MASLAKDOSHI

Mamlakatimizda xotin-qizlarning o’z imkoniyatlarini to’laqonli ro’yobga chiqarish, haq-huquqlarini himoya qilish, ular uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, barqaror rivojlanish barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish islohotlar bilan hamohangdir. “Dasht Pandigon” mahallasida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar faoli Minavvarxon Yunusova bugun ayollarning chin ma’nodagi maslakdoshi, ko’makchisiga aylangan. Shu o’rinda aytish joizki, yil boshida mahallada 230 nafar ishsizlar borligi qayd etilgan bo’lsa, shundan 51 nafarini xotin-qizlar tashkil etadi. Yig’inda ko’rilgan zarur chora-tadbirlar tufayli 10 nafar ayol ishli bo’lishdi. Masalan, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan va subsidiya asosida tikuv mashinasiga ega bo’lgan Gulira’no Jalolova o’zi daromad manbaiga ega bo’lishdan tashqari, ustoz-shogird an’anasi tamoyili ostida 3 nafar ayolning bandligini ta’minladi. Xotin-qizlar faoli shuningdek, oilalardagi ajrimlarni kamaytirish

maqsadida faollar bilan hamkorlikda keng ko'lamli ishlarni olib bormoqda.

JINOYATCHILIK JILOVLANGAN MAHALLA

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ana shu ma'noda bugungi kunda o'ziga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishda, hududda kriminogen vaziyatni o'rganib, tahlil qilib borishda profilaktika inspektori zimmasiga katta mas'uliyatlar yuklangan. "Dasht Pandigon" mahallasida faoliyat yuritayotgan profilaktika inspektori leytenant A. Rasulov o'z ishini puxta bajarayotgani va profilaktik ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yayotgani tufayli "Dasht Pandigon" MFY jinoyatchilik jilovlangan mahallalar qatoriga kirdi. Bu borada "beshlik"ning hamkorlikda ish olib borishi samara bermoqda. Xulosa shuki, "Dasht Pandigon" mahallasida yashovchi aholi hududda amalga oshirilayotgan islohotlardan mamnunlik bilan Mustaqillik bayramini qarshilamoqdalar.

Abror DEHQONOV,
Zaylobiddin YIGITALIEV.

2022-08-13 06:03:09